

O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHI VA ATROF-MUHITGA TA'SIRI

Fayzullayev Abdusamad Dilmurod o'g'li

TDIU, Moliya fakulteti 2-kurs talabasi

Rahimova Nozimaxon Jahongirovna

TDIU, Moliya kafedrasini o'qituvchisi

rahimovanozimaxon83@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda tez urbanizatsiya va ekologik muammolar tufayli yuzaga keladigan global va mahalliy muammolar yashil maydonlar tobora dolzarb bo'lib qolayotganiga asosiy sabab deb qaraganimiz va O'zbekiston o'zining yashil maydonlarini kengaytirish va dolzarb ekologik muammolarni hal etishda "Yashil iqtisodiyot"ning ahamiyati aks ettirilgan.

Kalit so'zlar: "Yashil iqtisodiyot", iqtisodiyot, ekologiya, qayta tiklash, yashil maydon, shaharshunoslik, barqaror rivojlanish, tadqiqot.

Kirish: "Yashil iqtisodiyot" haqida gapirar ekanmiz aslida bu nima ekanligini oldindan bilib olishimiz darkor. "Yashil iqtisodiyot" atamasi avvalo ekologiyani muhofaza qilish, atrof-muhitni rivojlantirish, atrof-muhitga insonlar, texnika, avtomobil va korxonalar tomonidan yetkazilayotgan zararlarni muhofaza qilish, resurslardan va qayta tiklanuvchi resurslardan oqilona foydalanish kabi maqsadlari tufayli bizga ancha tushunarliroq bo'ladi. Va U ekologik iqtisodiyot bilan chambarchas bog'liq, lekin ko'proq siyosiy jihatdan qo'llaniladigan yo'nalishga ega. [3][4] UNEP 2011 Yashil Iqtisodiyot hisobotida ta'kidlanishicha, "Yashil bo'lishi uchun iqtisodiyot nafaqat samarali, balki adolatli bo'lishi kerak. Adolatlilik global va mamlakat darajasidagi tenglik o'lchovlarini tan olishni, xususan, past uglerodli, resurslarni tejaydigan va ijtimoiy jihatdan qamrab oluvchi iqtisodiyotga adolatli o'tishni ta'minlashni nazarda tutadi." [5] O'zbekistondagi "Yashil iqtisodiyot" haqida gap borar ekan, bu siyosat nafaqat yurtimizda balki rivojlangan mamlakatlarning texnologik bazasini sifatini yaxshilanishi, ishlab chiqarish samaradorligi va iqtisodiyotda raqobatbardoshlikni darajasini oshirish bilan bir qatorda hayot sifatini va yashash muhitini yaxshilovchi yangi texnologik tuzilmaga modernizatsiya qilingan iqtisodiyotga o'tishni talab qilmoqda. Bilamizki yurtimizda ko'pincha chet el tajribalari keng qo'llaniladi. "Yashil o'sish" haqidagi chet el tajribasida qo'llanilgan iqtisodiy siyosati Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (OECD) tomonidan barcha a'zolarining uzoq muddatli (2030- yilgacha) rivojlanish uchun strategik yo'nalish sifatida qabul qilingan. [1]

Respublikada keskin bo'lib turgan ekologik va tabiatni muhofaza qilishga oid muammolar quyidagilar:

1. Yirik hududiy- sanoat majmualari joylashgan rayonlarda ya'ni Angren-Olmaliq-Chirchiqlarda, Farg'ona-Marg'ilonda, Navoiy va boshqa rayonlardagi tabiatni muhofaza qilish muammolari. Bu rayonlarda ijtimoiy-ekotizm holati yaxshi emas. Chunki sanoat markazlarida chiqayotgan turli xil gazlar va chiqindilar atrof-muhitni holatini buzilishiga olib kelmoqda.
2. Agrosanoat majmuidagi ekologik muammolar.
3. Tabiatdagi suvlarning sanoat chiqindilari pestisedlar va mineral o'g'itlar bilan ifloslanishi ham muammolardan biridir.
4. O'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish va qayta tiklash muammolari, qo'riqxonalar va milliy bog'lar tarmog'ini kengaytirish.

O'zbekiston davlati yashil iqtisodiyot va ekologiya sohalarida ko'zga ko'rinarli muvaffaqiyatlarga erishgan davlatlar qatorida deb bimalol ishonch bilan ayta olamiz. Bu natijalarga erishishimizda yurtimizda shu sohada ish yuritayotgan mutaxassislarining o'rni beqiyosdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Yashil Iqtisodiyot" konsepsiyasini rivojlantirishga e'tibor qaratgan

holda , mamlakatimizda ilm-fan , innovatsiyalar , muhandislik va inshootlarni rivojlantirish maqsadida ko'plab loyihalar amalga oshirdi. Bunga yaqqol misol qilib ushbu qaror keltirishimiz mumkin. Prezidentimizning BMT ga a'zo davlatlar tomonidab belgilab olingan "Barqaror rivojlanish maqsadlari"ga muvofiq mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish maqsadida " 2019-2030-yillar davomida O'zbekiston Respublikasining "Yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 04.10.2019-yildagi PQ-4477-sonli Qarori ham jahon mamlakatlari ko'zlayotgan iqtisodiy samaradorlik tomon qo'yilgan qadamlardan biri sifatida ta'kidlash mumkin [2] . Ushbu qarorlarning maqsadlari esa , butun jahon bo'yicha o'z ta'sirini ko'rsatib kelayotgan global muammolarni , jumladan , qashshoqlik , tengsizlik , iqlim o'zgarishi , atrof-muhit degradatsiyasi , tinchlik va adolat bilan bog'liq muammolarni hal qilishga qaratilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Yurtimizda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish va ekologiyani muhofaza qilish chora-tadbirlariga muhim e'tibor qaratilmoqda."Yashil iqtisodiyot" siyosatini qo'llash nafaqat ekologiya sohasiga , balki gavjum shaharlar aholisining sog'lom turmush tarzida yashashiga ham ancha foydali bo'ladi.Bu chora-tadbirlar ,ya'ni , yurtimiz tabiatini muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish borasidagi asosiy strategik maqsadlar quyidagilar hisoblabadi;

Aholining sihat-salomatligi uchun qulay sharoit yaratish, beosferaviy muvozanatni saqlash, O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish samaradorligi va barqarorligini ko'zlagan holda tabiiy resurslardan foydalanish, qayta tiklanadigan tabiiy resurslar ishlab chiqarish va iste'mol jarayonlarining muvoznatini saqlash, tiklanmaydigan resurslarni ishlab chiqarish, chiqindilardan oqilona foydalanish, regional va lokal darajalarda tabiatni qayta tiklanish hususiyatini tiklash, tabiatning daslabki turlari va ularning genofondini xilma – xilligini saqlash.

Bilamizki Orol dengizining qurishi ekologik atrof-muhitga va iqlim o'zgarishiga sababchi bo'ldi.Qurg'oqchilik tufayli uyerning kontenantligi oshib ketishi va u yerda yasho'vchi hayvonlarning kamayib ketishi va bunday sabablar tufayli kasalliklarning ham oshib ketishi yuz berdi.Agar zudlik bilan bunga chora ko'rilmasa, bu yerning ekologiyasi yaxshilanmasa ham aholi, ham tabiat ancha og'ir ahvolda qoladi. Yurtboshimizning tashabbuslari bilan ekologiyaga katta ta'sir qilayotgan Orol dengizi fojiasiga ham e'tibor qaratildi. Orol dengizini ekologik- iqtisodiy va ijtimoiy ahvolini yaxshilash, uni saqlab qolish maqsadida aholini sifatli ichimlik suvi bilan ta'minlash, Orol dengizi aholisini sanitar sharoitlar va ozuqa bilan ta'minlash uchun Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Markaziy osiyo davlatlari bilan yagona suv xo'jaligi siyosatini tashkil qilish va har bir Respublikadan Orol dengiziga quya oladigan suvi bilan Orol atrofidagi kichik-kichik ko'llarni saqlab qolish kabi ishlar rejalashtirdi.

Bir narsani ta'kidlab o'tmasak bu ekologiyaga e'tiborsizlik, bepisandlik bo'lardi deb o'ylayman. Hammamiz aminmizki , shahardagi ekologiya havas qilarli darajada emas.Bu sababli Toshkent shahri ba'zi bir kasalliklar o'chog'iga aylanib qolmoqda. Buning sabablari esa quyidagilar hisoblanadi:

1. Toshkentda yashil hudud kamaygani. Jumladan, daraxtlar va butalarning kesilishiga e'lon qilingan moratoriy davrida 49 mingga yaqin daraxtlar noqonuniy kesilgan.

2. Qurilish ishlarining betartib amalga oshirilayotgani. Xususan, Toshkent shahrida bir necha marotaba qurilish ishlarini amalga oshirmaslik bo'yicha moratoriy e'lon qilinganiga qaramay, jarayonlar davom etmoqda.

3. Avtotransport vositalari sonining ortib ketishi. Jumladan, Respublika bo'ylab avtomobillar soni 2021 yilda 3,14 million donani tashkil etgan. 2023 yilga kelib esa ularning soni 4,6 millionga yetdi. Bugungi kunda Toshkent shahrida bir kunda o'rtacha 730 mingta avtotransport vositasi harakatlanadi. Shuningdek, hududlardan 160 mingdan 300 minggacha avtotransport vositasi kirib kelmoqda. Xalqaro standartlarga to'g'ri kelmaydigan AI-80 markali benzindan foydalanayotgan texnika vositalari esa atmosferaga me'yoridan ortiq zararli moddalar chiqarmoqda.

4. Tirbandliklarning ko'payishi. Shaharlarda transport va piyodalar oqimining kesishmalari soni kamaytirilmagan, magistrallardagi yuklama darajasi pasaytirilmagan, transport oqimi tarkibini, tezlik rejimini tartibga solish sikli optimallashtirilmagan, yo'l harakat to'g'ri tashkil etilmagan. Oqibatda

Toshkentda tirbandlik holatlari ko'p kuzatilmoqda. "Probka"dagi avtomobil esa harakatlanayotgan avtomobilga nisbatan atmosferaga ko'proq chiqindi chiqaradi.

5. Uglevodorodlardan, jumladan, ko'mir yoqilg'isidan foydalanish hajmining ortgani. Xususan, 2019 yilda 3,9 million tonna ko'mir yoqilg'isidan foydalanilgan bo'lsa, 2022 yilda bu raqam 5,3 million tonnaga, 2023 yil yakuniga ko'ra esa 6,7 million tonnaga yetgan. Ko'mir yoqilg'isini qazib olish, tashishdan to foydalanishgacha bo'lgan jarayonda ajralib chiquvchi ifloslantiruvchi moddalar esa atrof-muhit, jumladan, atmosfera havosi, tuproq va suv resurslarining ifloslanishiga olib keladi.

6. Issiqlik markazlari tomonidan qo'shimcha yoqilg'i sifatida mazut yoqilg'isidan foydalanish. Ma'lumotlarga ko'ra, birgina Toshkent shahridagi mavjud 6 ta issiqlik markazlarining 9 ta qozonxonalarida dekabr oyida 3 ming tonna mazut yoqilg'isidan foydalanilgan. Bu atmosfera uchun zararlidir.

7. Tabiiy omillar. Toshkent havosi ifloslanishiga shamol yo'nalishi va tezligi, havo harorati, quyosh radiatsiyasi, atmosfera yog'inlarining miqdori va davomiyligi, harorat inversiyalari (vertikal bo'yicha aralash zarralarning tarqalib ketishiga to'sqinlik qiluvchi iliq havo qatlami) va boshqa tabiiy omillar ham sabab bo'lmoqda. Toshkent shahri tog'lar bilan o'ralgan va chuqurlikda joylashgan. Shu sababli shamol aylanmasligi hisobiga chang havo oqimi shaharda turib, dimlanib qoladi va tabiiy yo'l bilan chiqib ketmaydi.

Shu va yana shunga o'xshash ekologiyaga, atrof-muhitga ta'sir qiluvchi omillarni sanab o'tishimiz mumkin. Bularga albatta yechim topish har bir insonning burchidir. Chunki inson o'z foydasini o'ylar ekan hech narsadan qaytmaydi. Zarar yetkazildimi uni to'g'ri qo'yish ham kerak aslida. O'zbekiston so'nggi yillarda yashil iqtisodiyot va ekologiya sohasida muvaffaqiyatlarga erishgan davlatdir. Texnikalar, atrof-muhitni himoya qilish, algoritmik texnologiyalar va chiqindilarni qayta ishlar jarayonlarida faol ishlaydigan mutaxassislar O'zbekistonning iqtisodiy va ekologik rivojlanishida katta o'rin tutadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI

"Yashil iqtisodiyot"ga o'tish uchun turli soxa vakillariga turli vazifalar yuklatildi. 2018-yilda O'zbekiston Respublikasi Parij bitimini (Parij, 2015-yil 12-dekabr) ratifikatsiya qildi va uni amalga oshirish yuzasidan milliy miqyosda belgilanadigan hissa bo'yicha 2030-yilga qadar issiqxona gazlarining yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan solishtirma ajratmalarini 2010-yildagi darajadan 10 foizga qisqartirish miqdoriy majburiyatini qabul qildi. Parij bitimi majburiyatlarini bajarish doirasida issiqxona gazlari ajratmalarini qisqartirish bo'yicha o'rta muddatli ustuvor vazifalar mamlakatda iqtisodiyotning energiya va resurs sarfi hajmini kamaytirish, ishlab chiqarishda energiya tejankor texnologiyalarni keng joriy qilish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, Orolbo'yida ekologik tanglik oqibatlarini bartaraf etishni nazarda tutadigan qator strategik va tarmoq rejalari, dasturlari, shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlar orqali amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, iqtisodiyotning energiya samaradorligi yetarli darajada emasligi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanmaslik, texnologiyalar yangilanishining sustligi, "Yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish uchun innovatsion yechimlarni joriy etishda kichik biznesning faol ishtirok etmayotgani milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning ustuvor maqsadlariga erishishga to'sqinlik qilmoqda.

Mavjud muammolarni hal etish uchun iqtisodiy rivojlanish jarayonlariga iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida kam uglerod sarflagan holda rivojlanish va resurslarni tejash, samarali va ekologik toza texnologiyalarni joriy etish, shuningdek, barqaror qishloq xo'jaligiga yo'naltirilgan "yashil" iqtisodiyot tamoyillarini integratsiya qilish orqali tabiiy va energiya resurslaridan foydalanish usullarini tubdan o'zgartirish talab etiladi.

Bunda esa "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish quyidagicha tamoyillardan iborat bo'lmog'i lozim:

- barqaror rivojlanish sohasida Milliy maqsad va vazifalarga muvofiqlik;

- resurslardan oqilona foydalanish, barqaror iste'mol va ishlab chiqarish;
- iqtisodiy hisob tizimiga ekologik va ijtimoiy mezonlarni kiritish;
- ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish maqsadlariga erishish uchun "yashil" vositalar va yondashuvlarni qo'llash ustuvorligi;
- eng muhim tarmoqlarda raqobatbardoshlikni oshirish va ko'rsatkichlarni yaxshilash, "Yashil" ish o'rinlarini yaratish, aholining farovonligini oshirish orqali mavjud makroiqtisodiy maqsadlarga erishish;
- resurslardan samarali foydalanish tadbirlarining investitsion jozibadorligini ta'minlash.

O'zbekistonda 2030 yilgacha "Yashil" Iqtisodiyot bo'yicha quyidagi maqsadlarni o'z oldiga qo'ydi:

- Yalpi ichki mahsulot birligiga 2010 yil darajasidan 35% ga kamaytirish;
- qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini 25% ga yetkazish;
- 1 mln hektargacha bo'lgan maydonda tomchilatib sug'orishni joriy etish;

"Yashil" makonni va iqtisodiyotni kuchaytirish uchun aholi va soha vakillari tomonidan yetarlicha harakat qilinmoqda. Biz daraxtlarni sonini ko'paytirish, ekologiyaga zarar berayotgan korxonalar, tashkilotlardan kamroq foydalanish, turli joylarda o'rmonchilik soxalarini kuchaytirish, bog' va dam oluvchi hiyobonlarni sonini oshirish, tanazzulga uchragan qir-adirlarni, yaylovlarni qaytadan tiklash, mamlakatga tabiiy mahsulot yetkazib beruvchi aholi qatlamini rag'batlantirish, tanazzulga uchragan yerlarda o'rmonlar tashlik etish, aholi o'rtasida, shu jumladan ommaviy axborot vositalari orqali o'rmonlarni muhofaza qilish va tiklash masalalari bo'yicha keng axborot kampaniyalarini tashkil qilish orqali "Yashil" iqtisodiyotga benihoyat katta hissa qo'shgan bo'lamiz. Bu maqsadlarning ko'pchiligi O'zbekiston Respublikasining 2019-2030- yillarda "Yashil Iqtisodiyot"ga o'tish strategiyasida to'laligicha aks ettirilgan. Biz bu strategiyani qo'llash orqali 2030-yillarga kelib quyidagi maqsadlarimizga erishishimiz mumkin;

- issiqxona gazlarining yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan solishtirma ajratmalarini 2010-yildagi darajadan 35 foizga qisqartirish;
- qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ishlab chiqarish quvvatini 15 GVtga oshirish va ularning ulushini elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmining 30 foizidan ko'prog'iga yetkazish;
- sanoat sohasida energiya samaradorligini kamida 20 foizga oshirish;
- yalpi ichki mahsulot birligiga to'g'ri keladigan energiya sarfi hajmini, shu jumladan qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish hisobiga 30 foizga kamaytirish;
- iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida suvdan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirish, 1 million hektargacha maydonda suv tejovchi sug'orish texnologiyasini joriy etish;
- yiliga 200 million ko'chat ekish va ko'chatlarning umumiy sonini 1 milliarddan oshirish orqali shaharlardagi yashil maydonlarni 30 foizdan ortiqroqqa kengaytirish;
- respublika o'rmon fondi zaxiralari ko'rsatkichini 90 million kub metr dan ortiqroqqa yetkazish;
- hosil bo'ladigan qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash darajasini 65 foizdan oshirish ko'zda tutilgan.

XULOSA: Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki yurtimizda so'nggi yillarda ekologiya sohasida, "Yashil iqtisodiyot" sohasida juda katta o'zgarishlar ro'y berdi. Prezidentimiz tomonidan qilingan qarorlar, strategiyalar, davlatlararo kelishuvlar ekologiyamizni yanada yangi pog'onaga olib chiqdi. Xususan Parij bilan tuzilgan bitim orqali biz mamlakatning issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish bo'yicha majburiyatlaridagi muhim qadamga erishdik. O'zbekiston "Yashil iqtisodiyot" siyosatini qo'llab ekologiyamizni yuqori darajalarga olib chiqdi. Shunday ekan kelajakda ham yashil iqtisodiyotga katta e'tibor qaratish zarur. Resurslardan va qayta tiklanuvchi resurslardan oqilona foydalanish, ekologiyaga yetayotgan zararlar miqdorini kamaytirish va ekologiyani muhofaza qilish zarur. Buning uchun hammamiz birdamlikda xarakter qilishimiz kerak. Biz tabiatga qarammiz, biz tabiatdan yashay olmaymiz, shunday ekan biz barchamiz tabiatni asrab avaylashimiz, uning har-bir qarich

yerini ko'z qorachig'iday asrashimiz, tabiat boyliklaridan oqilona foydalanishimiz, har-bir tomchi suvni tejab ishlatishimiz, tabiat haqida doimo g'amxo'rlik qilishimiz lozim. Va yana bir narsa kelgusi yoshlar ongida ekologik ongni shakllantirish o'ta muhim masaladir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Порфирьев Б.П «Зеленая» экономики :реалии перспективы и пределы роста .- М.;Карнеги,,2013
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019-2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "Yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 04.10.2019- yildagi PQ-4477-sonli Qarori. <https://lex.uz/docs/-4539502>
3. „United Nations Environment Programme (UNEP)“. 2016-yil 27-martda asl nusxadan [arxivlangan](#). Qaraldi: 2016-yil 11-may.
4. ↑ Lynn R. Kahle, Eda Gurel-Atay, Eds. *Communicating Sustainability for the Green Economy*. New York: M.E. Sharpe, 2014. ISBN 978-0-7656-3680-5.
5. ↑ [Jump up to:3,0 3,1](#) UNEP, 2011, Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication, www.unep.org/greeneconomy
6. Yashil iqtisodiyot darslik /A.B.Vaxabov, III.X.Hajibakiev – Toshkent.: "Universitet", 2020. -262 b.
7. Rahimova N. et al. Davlat xaridi munosabatlarining subyektlari //Science and Education. – 2022. – T. 3. – №. 12. – С. 934-940.
8. O'roqov, Uchqun Yunusovich, and Nozimaxon Jahongir qizi Rahimova. "Investitsiyalarni jalb qilishda qulay investitsiya muhitining ahamiyati." *RESEARCH AND EDUCATION* 1.3 (2022): 229-239.
9. Malikov T.S., Vahobov D.R. Moliya: chizmalarda. O'quv qo'llanma – T.: Iqtisod-moliya, 2012 .
10. Malikov T.S. Moliya: xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyasi. O'quv qo'llanma. –T.: Iqtisod-moliya, 2010.
11. Malikov TS. Moliya. O 'quv qo'llanma. Toshkent: Iqtisod-moliya. 2018.
12. Malikov TS, Moliya HN. umumdavlat moliyasi./O'quv qo'llanma. Toshkent:"Iqtisod-moliya. 2009;556